



XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 17-dekabr VII-16-128-11-163-K/25 Farg‘ona tumani

2025-yilda Farg‘ona tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturining 2025-yil 3-chorakdagi ijrosi to‘g‘risida

Ma’lumki, hududlarni kompleks rivojlantirish, yuqori iqtisodiy o‘rishga erishish, biznes muhitini yanada yaxshilash, o‘rish nuqtalarini ishga solish, yashil tamoyil va yondashuvlarni keng joriy etish orqali aholi bandligini ta’minlash va daromadlarini oshirish borasida mahalliy hokimliklar mas’uliyati va hisobdorligini oshirish hamda ularning tashabbuskorligi, islohot va o‘zgarishlarga “egallik qilish” rolini kuchaytirishga qaratilgan tizimni joriy etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrda “Hududlarda yuqori iqtisodiy o‘rish va aholi bandligini ta’minlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-223-sonli Farmoni qabul qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoni bilan, tegishli Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar hamda tuman va shaharlar Kengashlari tomonidan hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yillik dasturi mahalliy budjet parametrlari bilan birga belgilangan muddatlarda tasdiqlash, bunda 2025-yil uchun dasturlar, istisno tariqasida, 2025-yil 1-fevralgacha tasdiqlash tartibi belgilangan.

Shunga ko‘ra, tuman hokimligi tomonidan Farg‘ona tumanini 2025-yilda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi loyihasi ishlab chiqilib, Kengashga taqdim etilgan.

Bu bo‘yicha xalq deputatlari tuman Kengashining 2025-yil 27-yanvar kuni VII-4-4-11-163-K/25-sonli qarori qabul qilinib, sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, xizmatlar, tadbirkorlik va ijtimoiy sohalarini rivojlantirish, hududiy eksport va investisiyalar hajmini oshirish, yashil tamoyil va yondashuvlarni joriy etish, aholi bandligini va daromadlarini oshirish, ishsizlik va kambag‘allikni qisqartirish kichik dasturlari, shuningdek, hududni rivojlantirishga yo‘naltiriladigan moliyaviy mablag‘larning manbalar kesimida prognoz parametrlari tasdiqlangan.

Bundan tashqari, tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari - Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i tomonidan Dastur ijrosini **har chorak yakuni bo'yicha keyingi oyning 25-sanasiga qadar** Xalq deputatlari tuman Kengashiga kiritib borish ham belgilangan.

Shunga ko'ra, tuman hokimligi tomonidan tumanni 2025-yilda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturining 2025-yil 3-chorakdagi (keyingi orinlarda –hisobot davri) ijrosi yuzasidan hisobot kiritilgan.

Sanoat sohasini rivojlantirish kichik dasturi bo'yicha:

Hisobot davrida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1230,0 mlrd.so'mga yetkazish, 7,9 foizga o'sishini ta'minlash prognozi belgilab olingan bo'lib, **amalda** sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi **1267,2 mlrd so'm** (viloyatdagi ulushi – 3,1 %)ni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **o'sish 8,1 foizni** tashkil etib, belgilangan prognoz ortig'i bilan bajarildi.

tumandagi **5 ta** yirik sanoat korxonalari tomonidan 2025-yilning yanvar-sentabr oylari davomida **941,3 mlrd. so'mlik** mahsulot ishlab chiqarilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **191,2 mlrd. so'mlik** mahsulot ishlab chiqarish oshishiga erishildi.

Tumanda joriy yilda 8 ta mahallalarda G'ijduvon tajribasi asosida “tepaga o'sadigan” (vertikal) sanoat binolarini barpo etish va tadbirkorlarni joylashtirish borasida 8 ta mahallalarda umumiy qiymati 4,1 mlrd. so'mlik 8 ta loyihalar ishga tushirilib, 175 ta ish o'rinlari tashkil etildi.

2025-yil yanvar-sentabr oylari davomida Investitsiya dasturi doirasida **qurilish materiallari** sanoati yo'nalishida qiymati 70,0 mlrd. so'mlik 5 ta loyihalar, amalga oshirildi va 150 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

Joriy yilda sanoat yo'nalishida amalga oshiriladigan loyihalarning manzilli ro'yxatiga asosan, o'tgan **yanvar-sentabr oylarida 74 ta** loyihalarni ishga tushirish rejalashtirilgan bo'lib, amalda 74,5 mlrd.so'mlik 84 ta loyihalar ishga tushirildi va 1281 ta ish o'rni yaratildi.

Shu bilan birga, yanvar-sentabr oylarida 1 ta keyingi oylarda 9 ta ishga tushishi rejalashtirilgan ammo istiqbolsiz deb topilgan loyixalar o'rniga o'rindosh loyihalar kiritish xamda **22 ta** loyixaning tashabbuskori tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar hajmi ko'payganligi va qurilish ta'mirlash ishlari oxiriga yetmaganligi sababli ushbu loyihaning muddatini keyingi yilga o'tkazish taklifi kiritilmoqda.

Qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirish kichik dasturi bo'yicha:

Hisobot davrida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish hajmini 2883,7 mlrd.so'mga yetkazish, 4,2 foizga o'sishini ta'minlash prognozi belgilab olingan bo'lib, **amalda** qishloq xo'jaligi hajmi **2 795,4 mlrd. so'mni** yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **o'sish 107,3 foizni** tashkil etib belgilangan prognoz ortig'i bilan bajarildi.

Aholiga ijaraga berilgan qishloq xo'jaligi ekin yerlarida “bir kontur – bir mahsulot” tamoyili asosida 2025-yilda tijorat banklar tomonidan mazkur loyihalarni amalga oshirish uchun jami 7 ta konturda 86 gektar yer maydonlari

tanlab olingan bo'lib, bugungi kun holatiga ushbu konturlardagi barcha yer maydonlarida birinchi ekinni ekish ishlari yakuniga yetkazildi.

Joriy yil davomida qishloq xo'jaligida **oborotdan chiqqan 550 gektar** yerlarni qayta foydalanishga kiritilishi belgilangan bo'lib, 3-chorak davomida **550 gektar** yerlarni qayta foydalanishga kiritildi.

317 gektar yer maydonlarida suv tejovchi texnologiyalar **tomchilatib sug'orish** va **yomg'irlatib sug'orish** tizimlari joriy etildi.

Joriy yil yanvar-sentabr oylarida qishloq xo'jaligi yo'nalishida amalga oshiriladigan loyihalarning manzilli ro'yxatiga asosan **68 ta** loyihalarni ishga tushirish rejalashtirilgan bo'lib, amalda **38,8 mlrd.so'mlik 68 ta** loyihalar ishga tushirildi va **4483 ta** ish o'rni yaratildi.

Shu bilan birga, oktabr-dekabr oylarida **21 ta** ishga tushishi rejalashtirilgan loyixalar istiqbolsiz deb topilib o'riniga o'rindosh loyihalarga almashtirish taklifi kiritilmoqda.

Qurilishni rivojlantirish kichik dasturi bo'yicha:

Davlatimiz Rahbarining **PQ-330-sonli** qarori bilan **7 ta** og'ir mahallalarda tomorqa yerlarini sug'orishni yaxshilash, elektr energiyasi barqaror yetkazib berilishini ta'minlash, internet sifatini oshirish, ichki yo'llarni ta'mirlash maqsadlari uchun jami **21,0 mlrd.so'm** mablag' ajratilmoqda. Jumladan,

– Tomorqa yerlarini sug'orish tazimi yaxshilash bo'yicha **7 ta** mahallalarda **10 ta** quduq qazish uchun **4.850 mlrd.so'm** mablag'lar ajratildi.

Hozirda ushbu og'ir toifadagi mahallalarda tomorqa yerlarini sug'orishni yaxshilash bo'yicha **4.078 mlrd.so'm** mablag' xisobiga **7 ta** mahallaga **10 ta** sug'orish qudug'i qurilib, qurilish montaj ishlari yakuniga yetkazildi.

- Elektr ta'minoti bo'yicha - **7 ta** obyektida **5,233 mlrd.so'm** mablag' sarflanishi hisob-kitob qilingan. Jumladan, **11 ta** transformator o'rnatish (**1,320 mlrd.so'm**), **18,5 km** elektr tarmog'i tortish (**2,960 mlrd.so'm**) hamda **686 ta** tayanchlarni almashtirish (**953 mln.so'm**) orqali **7170 ta** xonadonni elektr ta'minoti yaxshilanmoqda.

Hozirda ushbu dasturga asosan **19,1 km** masofada elektr uzatish tarmog'i, **11 dona** transformator punkti va **686 dona** temir-beton tayanchlar o'rnatilib qurilish montaj ishlari 100% ga bajarilib yakuniga yetkazildi.

- Ichki yo'llar bo'yicha - **7 ta** MFY da **23,0 km** yo'llarni asfaltlashtirish (**10,917 mlrd.so'm**) hisobiga **819 ta** xonadonni yo'llardan foydalanish sharoiti yaxshilanadi.

Birdamlik MFY hududidagi ichki ko'chalarini **500 metr** qismida shag'allashtirish ishlari olib borilib qolgan ishlar davom etmoqda.

- Internet bo'yicha - **7170 ta** xonadonni optik tolali internet tarmog'i tortish bo'yicha tegishli choralar olib borilmoqda.
- Ushbu **7 ta** og'ir toifadagi mahallalarga optik tolali internet tarmog'i tortish bo'yicha **30 ta 1/4**, **95 ta 1/8** splitter qurilmasi o'rnatildi, **32 km 8** tolali, **10,7 km 12** tolali, **0,7 km 16** tolali, **7,9 km 24** tolali hamda **3,5 km 48** tolali magistral kabellar tortildi.

I.Aholi punktlari ko'chalari holatini yaxshilash bo'yicha:

Farg'ona tumanida jami bo'lib **71 ta** mahalla fuqarolar yig'inlari, **437 ta** ko'chalar, **1207,0 km** ichki yo'llar mavjud. Shundan **740,9 km** ichki yo'llar asfaltlashtirilgan, **348 km** ichki yo'llar shag'allashtirilgan, **41,3 km** ichki yo'llar tuproq yo'l hisoblanadi.

2025-yilning yanvar-oktyabr oylari mobaynida **38,2 km** ichki yo'llar asfaltlashtirildi, **8270 km** qismi tuproq qoplamadan shag'al qoplamaga yotkizildi.

II. Ichimlik suvi bo'yicha

Joriy yilning yanvar-oktyabr oylarida **712 ta** aholi xonadonlari ichimlik suvi tarmog'iga (**98,2%**) ulandi, **7,2 km** ichimlik suvi tarmog'ini ta'mirlandi, **11 ta** suv minoralari ta'mirlanib, aholi xonadonlari iste'molchilar soni **28 712 tani** (**82,5%**) tashkil etmoqda.

III. Elektr tarmoqlari bo'yicha

Joriy yilning yanvar-oktyabr oylari davomida **70 dona** transformator punkti, **127,0 km** elektr uzatish tarmoqlari mukammal va **207 dona** transformator punkti hamda **382,0 km** elektr uzatish tarmoqlari joriy tamirlandi.

IV. Gazlashtirish bo'yicha:

Joriy yilning yanvar-oktyabr oylari davomida **6,5 km** gaz quvirlari ta'mirlandi **8 dona GRP** lar yangidan qurildi va **6 dona GRP** lar ta'mirlandi hamda **1,2 km** yangi tarmoqlar tortildi, shu bilan birga 2025-yil 15-sentabr holatiga ko'ra suyultirilgan gazdan foydalanuvchi jami iste'molchilar soni **22 173 ta** aholi xonadonlari bo'lib, ulardan **17 606 ta** shaxsiy **9 956 ta** shartnoma asosida vaqtincha foydalanishdagi balonlardir.

9 oylik (yanvar-oktyabr) umumiy ta'minot rejasi **3041,0 tonna** bo'lib, amalda **3047,1 tonna** (100,2%) ta'minlangan. Yillik gaz fondi **3650,0 tonna**.

V. Ko'p kvartirali uy-joylar qurilishi bo'yicha :

Joriy yilning **10 oyi** davomida **2 ta 5 qavatli 50** xonadonli **6 ta 7 qavatli 56 xonadonli** uy-joylar hozirgi kunda qurilish montaj ishlari olib borilmoqda, bundan tashqari jami **13 ta 582** xonadonli ko'p qavatli uy-joylarning qurilish ishlari yakunlanib foydalanishga qabul qilindi.

Farg'ona tumanida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-iyundagi "Mahallalarni obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish va qiyofasini tubdan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-234-son qarori hamda Farg'ona viloyat hokimining 2024-yil 2-avgust kungi 412-11-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida, tumanning Yangi asr mahalla fuqarolar yig'ini hududida mahalla obodligi bilan shug'ullanuvchi "Mahalla servis kompaniyalari"ga yer maydoni ajratib berilgan bo'lib, xozirgi kunda qurilish ishlari amalga oshirilmoqda.

Xizmatlar sohasini rivojlantirish kichik dasturi bo'yicha:

Hisobot davrida tumanda xizmat ko'rsatish hajmi **1086,2 mlrd.** so'mga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **13,2 foiz oshdi**, **42 ta** savdo va servis ob'ektlari ishga tushirildi.

Jumladan, mehmonxona va uy mehmonxonalari **2 ta**, ta'lim sohasida **6 ta**, tibbiyot sohasida **7 ta**, chakana savdo ob'ektlari **5 ta**, yirik savdo markazlari **1 ta**,

Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish **4 ta**, maishiy xizmat ko'rsatish ob'ektlari

4 ta va boshqa sohalarda **13 ta** ob'ektlar ishga tushirildi. Ishga tushirilgan loyihalar hisobiga **468 ta** yangi ish o'rinlari yaratildi.

Maxsus xizmat ko'rsatish ko'chalariga aylantiriladigan **1 ta** markaziy ko'chalarida ko'ngil ochar **12 ta** savdo va servis ob'ektlarini tashkil etish bo'yicha qiymati **4,2 mlrd. so'mlik** loyihalar shakllantirildi. Buning natijasida **32 ta** yangi ish o'rinlar tashkil etilishi rejalashtirildi. Bugungi kunda ushbu ko'chada qiymati **4,1 mlrd. so'mlik 9 ta** loyixa ishga tushirilib **36 ta** ish o'rinlari yaratildi.

Xizmat turlari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar, me'morchilik va muhandislik xizmatlari sohasidagi xizmatlari **26,0 foizga** (*3,1 mlrd.so'm*), moliyaviy xizmatlar

18,0 foizga (*189,9 mlrd.so'm*), ijara xizmatlari **14,9 foizga** (*21,7 mlrd.so'm*), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlari **15,2 foizga** (*11,2 mlrd.so'm*), kompyuterlar va maishiy tovarlarni tamirlash bo'yicha xizmatlari **15,9 foizga** (*21,8 mlrd.so'm*), transport xizmatlari **14,1 foizga** (*174,3 mlrd.so'm*), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **12,7 foizga**

(*75,1 mlrd.so'm*) **o'sgan.**

Joriy yil yanvar-sentabr oylarida xizmat ko'rsatish yo'nalishida amalga oshiriladigan loyihalarning manzilli ro'yxatiga asosan **157 ta** loyihalarni ishga tushirish rejalashtirilgan bo'lib, amalda **131,9 mlrd.so'mlik 157 ta** loyihalar ishga tushirildi va **1075 ta** ish o'rni yaratildi.

Shu bilan birga, oktyabr-dekabr oylarida **10 ta** ishga tushishi rejalashtirilgan loyihalar istiqbolsiz deb topilib o'riniga o'rindosh loyihalarga almashtirish taklifi kiritilmoqda.

Hududiy eksport va investitsiyalar hajmini oshirish kichik dasturi kichik dasturi bo'yicha:

2025-yilda umumiy qiymati **207,3 mln. dollar** bo'lgan **15 ta** loyihalar doirasida **127,0 mln.dollar** to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va xorijiy kreditlar o'zlashtirilishi belgilangan. Shundan, **3-chorak yakuniga 88,6 mln.dollar xorijiy investitsiyalar** o'zlashtirishi belgilangan bo'lib, amalda **89,5 mln.dollar** investitsiyalar o'zlashtirilib reja ko'rsatkichi **100,9 foizga** bajarildi.

Shuningdek, joriy yilda hududiy investitsiya dasturlari doirasida qiymati **51,5 mln. dollar** bo'lgan **33 ta** loyihalarni amalga oshirish hisobiga **4 536 ta** ish o'rinlarini yaratish belgilangan bo'lib, **01.10.2025 holatiga** qiymati **49 mln. dollar** bo'lgan **50 ta** loyihalarni ishga tushirildi va **5890 ta** yangi ish o'rinlarini yaratildi.

Misol uchun: *Farg'ona tumanida Tailand bilan "Bahodir log'on teksil" MCHJ QK tomonidan qiymati 20,0 mln. doll. bo'lgan turizm kompleksini tashkil etish loyihasi doirasida 12,0 mln. dollar, "Bahodir log'on tekstil" MCHJ QK tomonidan Un ishlab chiqarishni tashkil etish loyihasi doirasida 10,0 mln dollar"Sanoat Energetika Guruhi" MCHJ QK tomonidan 23,6 mln dollar xorijiy investitsiyalar o'zlashtirildi.*

Joriy yilning **yanvar-noyabr** oylari uchun **33,2 mln. dollar** prognoz ko'rsatkichlari belgilanib, o'tgan **9 oyda** amalda jami **19,2 mln. dollar** **eksport amalga** oshirildi. Shundan, **qishloq xo'jaligi** mahsuloti **13,7 mln. dollar**, **sanoat** mahsuloti **5,5 mln. dollar**ni tashkil etdi.

Misol uchun: **"Royal thay Branch"** MCHJ tomonidan **1,3 mln. dollarlik** ip kalava mahsulotlari, **"Baht Textile Andijon"** MCHJ tomonidan **3,2 mln. dollarlik** to'qimachilik mahsulotlari hamda **"Yusufbek Building"** MCHJ tomonidan **2,1 mln. dollarlik** **"Fermi 777"** MCHJ **4,2 mln. dollarlik** tomonidan qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti amalga oshirildi.

Tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish kichik dasturi:

Sayxunobod tajribasi bo'yicha 73 ta mahallada 40 tadan jami 2 920 ta mikroloyihani amalga oshirish hamda buning hisobiga 5 840 ta yangi ish o'rinlari yaratilishi begilab olingan. Joriy yilning yanvar-seniyabr oylarida davomida 2 725 ta mikroloyihani ishga tushirilib, 5 347 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

Tadbirkorlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida,

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida 10,2 mlrd.so'm kredit ajratish orqali 870 nafar aholi biznesga jalb qilindi.

"Biznesga birinchi qadam" dasturi asosida **23,5 mlrd so'm** kredit ajratildi, 893 nafar fuqorolar o'zini o'zi band qilishga erishildi.

"Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" kompleks dasturi asosida **28,1 mlrd so'm** moliyaviy va konsultativ xizmatlar bilan ta'minlandi.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida o'tgan 9 oy davomida **54 ta** yangi kichik biznes sub'ektlari faoliyati yo'lga qo'yildi. Shuningdek 1 444 nafar fuqarolar (shundan 914 nafari ayollar, 387 nafari yoshlar) mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan zamonaviy kasb xunarga o'qitish **ishlari amalga oshirilmoqda**, shundan 810 nafar fuqarolar kasb-hunarga o'qitish **jarayonlari yakunlandi** hamda 720 nafar fuqarolarning **bandligini ta'minlashga** erishildi.

Aholi bandligi va daromadlarini oshirish, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish kichik dasturlari bo'yicha:

Tumanda aholi bandligini ta'minlash dasturi doirasida joriy yilning 3-choragida **7,0** ming nafar (*Kengashda tasdiqlangan reja*) aholini ish bilan ta'minlash rejalashtirilgan.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida 11,9 ming nafar aholi bandligi ta'minlandi. Jumladan, yoshlar bandligini ta'minlash bo'yicha 316 nafar yoshlarning bandligi taminlandi bandligi ta'minlandi.

Yashirin ish o'rinlarini legallashtirish bo'yicha Farg'ona tumanida 3-chorak yakuni bilan **631 nafar** fuqarolarning bandliklari ta'minlashga erishildi.

Hisobot davrida **"Kasbiy ta'lim dasturi"** asosida **927** nafar fuqarolar kasb-hunar va xorijiy tillarga o'qitishga jalb etilgan.

Shuningdek, xorijda ishlash istagidagi fuqarolar **"Xorijda ish" platformasiga** ish izlovchi sifatida kiritilmoqda va mazkur nomzodlar filialda tashkil etiyotgan tanlovlarga jalb etib kelinmoqda. Jumladan, joriy yilning o'tgan

davri mobaynida jami **1107 nafar** fuqarolar ish izlovchi sifatida kiritilib, **1 107 nafar** fuqarolar xorijda ishlash uchun jo'natildi.

Ijtimoiy sohani rivojlantirish kichik dasturlar bo'yicha:

Hisobot davrida 3-7 yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi 83,9 foizga yetkazilib 17 368 nafar 3-7 yoshdagi bolalar qamrab olindi. 77 ta rahbar va pedagog kadrlarning malakasi oshirish kurslariga jalb qilindi.

"Besh tashabbus olimpiadasi" musobaqalariga va bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratilgan tadbirlarga 10 881 nafar yoshlar jalb etildi, 255 nafar homilador ayollar prenatal skriningdan o'tkazildi, 20 267 nafar 40 va undan katta yoshdagi aholini yurak-qon tomir, qandli diabet kasalliklari bo'yicha tekshiruvdan o'tkazildi.

Tibbiyot muassasalariga 25 mln so'mlik tibbiyot asbob-uskunalar bilan jihozlar ajratildi. 31,0 ming nafar yoshlar ommaviy sport musobaqalariga jalb etildi.

Xalq deputatlari tuman Kengashining 2025-yil 27-yanvardagi VII-4-4-11-163-K/25-sonli qarori bilan tasdiqlangan dasturning choraklar va joriy yil uchun belgilangan ayrim maqsadli ko'rsatkichlariga qo'shimcha va o'zgarishlar kiritish yuzasidan takliflar bo'yicha:

Mazkur maqsadli ko'rsatkichlar yil boshida dastlabki hisob-kitoblar asosida shakllantirilgan holda tuman Kengashiga taqdim etilgan bo'lib, 3-chorak yakuni bo'yicha ijrosi jarayonida hisob-kitoblar yanada aniqlashtirilib, yakuniy holatga keltirilganligi natijasida quyidagi takliflar vujudga kelgan:

Shuningdek, dasturga kiritilgan loyihalarda tashabbuskorlar tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar hajmini ortganligi, kredit ajratish bilan bog'liq muammolar, ayrim tashabbuskorlar tomonidan loyihani amalga oshirishni rad etish kabi bir qator masalalar yuzaga kelib chiqmoqda.

Bundan ko'rinib turibdiki, tasdiqlangan dasturning ilovalariga kiritilgan loyihalarni muddatini uzaytirish, istiqbolsiz loyihalar o'rniga ish o'rni va loyiha soniga teng bo'lgan istiqbolli loyihalarni kiritish xalq deputatlari tuman kengashining tegishli qarorlari bilan o'zgartirish kiritib borish maqsadga muvofiq.

Farg'ona tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, **yuqori va barqaror iqtisodiy o'sishga** erishish, **aholi yashashi va tadbirkorlik faoliyati** uchun qulay shart-sharoit yaratish, **yashil tamoyil va yondashuvlarni** keng joriy etish, **iqtisodiy o'sishga turtki beruvchi drayver loyihalarni** amalga oshirish orqali aholi bandligini ta'minlash va daromadlarini oshirish, bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrda PF-223-sonli Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrda "Hududlarda yuqori iqtisodiy o'sish va aholi bandligini ta'minlashning yangi tizimini yo'lga qo'yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-223-sonli Farmoni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. 2025-yilda Farg'ona tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturining 2025-yil 1-chorakdagi ijrosi yuzasidan tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari O.Abduraximovning hisoboti qabul qilinsin.

3. Xalq deputatlari tuman Kengashining 2025-yil 27-yanvar VII-4-4-11-163-K/25-sonli qarori bilan tasdiqlangan ayrim maqsadli ko'rsatkichlarga tegishincha o'zgartish va qoshimchalar kiritish, shuningdek, 1b, 2b, 4b-ilovalariga kiritilgan loyihalarni muddatini uzaytirish, istiqbolsiz loyihalar o'rniga ish o'rni va loyiha soniga teng bo'lgan istiqbolli loyihalarni kiritish yuzasidan taklifi ma'qullansin.

4. Shunga ko'ra, dasturga asosan quyidagilar:
sanoatni rivojlantirish kichik dasturining **1b** ilovasidagi **22 ta** loyihani muddatini uzaytirish **10 ta** istiqbolsiz deb topilgan loyihani o'rniga o'rindosh qabul qilish;

qishloq xo'jaligini rivojlantirish kichik dasturining **2b** ilovadagi **21 ta** istiqbolsiz deb topilgan loyihani o'rniga o'rindosh qabul qilish;

xizmatlarni rivojlantirish kichik dasturining **4b** ilovadagi **10 ta** istiqbolsiz deb topilgan loyihani o'rniga o'rindosh qabul qilish.

5. Quyidagilarga shaxsiy mas'uliyat yukalatilsin:

tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari - Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i – sanoatni rivojlantirish, xizmatlarni rivojlantirish, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamda aholi bandligini va daromadlarini oshirish, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish kichik dasturlarini sifatli amalga oshirish yuzasidan;

tuman hokimning qurilish, to'siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari – qurilishni rivojlantirish hamda yashil tamoyil va yondashuvlarni joriy etish kichik dasturlarini sifatli amalga oshirish yuzasidan;

tuman hokimning o'rinbosari —Investisiyalar, sanoat va savdo bo'limi boshlig'i – hududiy eksport va investisiyalar hajmini oshirish kichik dasturini sifatli amalga oshirish yuzasidan;

tuman hokimning hokimning qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari – tuman qishloq xo'jaligi bo'limi boshlig'i – qishloq xo'jaligini rivojlantirish kichik dasturini sifatli amalga oshirish yuzasidan;

tuman hokimning yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari hamda **hokimning o'rinbosari — Oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i** – ijtimoiy sohani rivojlantirish kichik dasturini sifatli amalga oshirish yuzasidan.

6. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari - Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i O.Abduraximov:

har haftada "Hokimlik soati" va boshqa idoraviy kengaytirilgan yig'ilishlarda Dasturda belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarni o'z vaqtida, sifatli va tizimli bajarilishini tanqidiy muhokama qilib borsin;

har chorak yakuni bo'yicha topshiriqlar ijro holati bo'yicha, jumladan, maqsadli ko'rsatkichlarni muddatidan kechikib bajarilganlik yoki umuman bajarilmaslik sabablarini (*har bir topshiriq bo'yicha*) chuqur tahlil qilib, uning sabab va omillari, shuningdek, ushbu kamchiliklarga yo'l qo'yan rahbar va xodimlarga nisbatan intizomiy javobgarlik choralari qo'llash bo'yicha takliflar aks etgan axborot kiritib borsin.

7. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari O'zbekiston Respublikasining "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashi deputatining maqomi to'g'risida"gi Qonunida belgilangan deputatning huquq va majburiyatlaridan kelib chiqib, topshiriqlar ijro holati bo'yicha, jumladan, maqsadli ko'rsatkichlarni o'z vaqtida, sifatli va tizimli bajarilishi yuzasidan deputatlik nazoratini olib borsin.

Bunda, soha mutaxassislarini jalb qilgan holda monitoring o'rganishlar olib boriladi, shuningdek, bu borada mas'ullarning hisobotlarini tegishli doimiy komissiyalar yig'ilishlari Kengash sessiyalari eshitib boriladi.

8. Tuman hokimligi axborot xizmati (A.Ergashev) tuman Dasturi ijrosi yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar va uning natijadorligini ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritib borish tavsiya etilsin.

9. Mazkur kengash qarorining ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari raislari hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari - Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i O.Abduraximov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



**INOMOV
XAMIDULLO
TADJIYEVICH**

Xalq deputatlari Farg‘ona tumani
Kengashining
2025-yil 17-dekabrdagi
VII-16-128-11-163-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**2025-yilda Farg‘ona tumanida sanoatni rivojlantirish bo‘yicha
MAQSADLI KO‘RSATKICHLAR**

T/r	Indikatorlar nomi	O‘lchov birligi	Qamrov darajasi	Farg‘ona tumani (reja)	III chorak	III chorak
					reja	amalda
1.	Sanoat mahsulotlari o‘lish sur‘ati	foiz	tuman	107,3	107,9	108
2.	Sanoat kirib bormagan mahallalarda kichik ishlab chiqarish loyihalarini amalga oshirish	ta	tuman, mahalla	14	3	3
3.	Mahallalarda mikrosanoat markazlarini tashkil etish (G‘ijduvon tajribasi loyihalar)	ta	tuman, mahalla	9	2	2
4.	«Drayver» loyihalarini amalga oshirish (Zarbdor tajribasi)	ta	tuman	1	1	
5.	Yangi tashkil etiladigan sanoat zonalarini	ta	tuman			
6.	Sanoat zonalaridagi bo‘sh yerlarda loyihalar joylashtirish	ta	tuman	10	4	4
7.	Maxsus iqtisodiy zonalaridagi bo‘sh turgan yer uchastkalariga yangi loyihalar joylashtirish	loyiha soni	tuman			
8.	Sanoat zonalarida ishga tushiriladigan loyihalar	ta	tuman	9	4	4
9.	Xonadonlarda kichik ishlab chiqarish sexlarini tashkil etish	ta	tuman, mahalla	4	1	2

10.	Foydali qazilma kon va maydonlarni auksion savdolariga chiqarish	ta	tuman			
11.	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashning yangi quvvatlari	ming tonna	tuman	4,8		
12.	Qishloq xo'jaligi mahsulotini qayta ishlash darajasi (hisobot davri yakuni bo'yicha):	foiz	tuman	13	11,2	4,5
<i>12.1</i>	<i>meva-sabzavot</i>	foiz	tuman	8,7	7,8	7,2
<i>12.2</i>	<i>go'sht mahsulotlari</i>	foiz	tuman	1,7	1,6	4,2
<i>12.3</i>	<i>sut mahsulotlari</i>	foiz	tuman	8,1	6,2	6,9
<i>12.4</i>	<i>teri va jun mahsulotlari</i>	foiz	tuman			
<i>12.5</i>	<i>baliq</i>	foiz	tuman			

Xalq deputatlari Farg‘ona tumani
Kengashining
2025-yil 17-dekabrdagi
VII-16-128-11-163-K/25 -son qaroriga
2-ilova

**2025-yilda Farg‘ona tumanida qurilish sohasini rivojlantirishning
MAQSADLI KO‘RSATKICHLAR**

T/r	Indikatorlar nomi	O‘lchov birligi	Qamrov darajasi	Farg‘ona tumani (reja)	III chorak	III chorak
					reja	amalda
1.	Qurilish ishlari hajmi	mlrd. so‘m	tuman	106,8	105,3	117,8
		foiz				
2.	O‘zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkalari va ularda qurilgan ob’ektlarni xatlovdan o‘tkazish	xatlov ob’ekti soni	tuman, mahalla	20	5	19
3.	Jamoatchilik fikri asosida (<i>“ochiq byudjet” doirasida</i>) tadbirlarni moliyalashtirish	mlrd. so‘m	tuman	40,9	16,8	16,9
4.	Xalqaro moliya institutlari ishtirokidagi qishloq infratuzilmasi, o‘rta shaharlar va mahallalarda infratuzilmani yaxshilash loyihalari doirasida amalga oshiriladigan ish hajmi	mln doll.	tuman	0		
5.	Ko‘p kvartirali uy-joylar qurilishini tashkil qilish, shu jumladan:	xonadon soni	tuman	542	238	238
5.1.	<i>“Yangi O‘zbekiston” massivlarida</i>	<i>xonadon soni</i>	tuman	392	162	162
5.2.	<i>boshqa hududlarda</i>	<i>xonadon soni</i>	tuman	150	76	76
6.	Mahallalarning asosiy kirish joylari qiyofasini yaxshilash	ta	tuman, mahalla	2	1	1
7.	Mahallalarda xonadonlar tashqi ko‘rinishini yaxshilash	xonadon soni	tuman, mahalla	195	60	70
8.	Mahallalar ko‘chalarida ishkamlar barpo qilish	xonadon soni	tuman, mahalla	63	10	10

9.	Aholi punktlarida piyodalar va velosiped yo'laklarini tashkil etish	km	tuman,	1,5	1	1
10.	Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari holatini yaxshilash loyihalarini amalga oshirish	km	tuman	18,6	7,4	7,4
11.	Ko'p kvartirali uylarni ta'mirlash	ta	tuman	4	2	15
12.	Issiqlik ta'minoti tizimini yaxshilash loyihalarini amalga oshirish, shu jumladan:	loyiha soni	tuman	0		
12.1.	<i>tarmoqlarni ta'mirlash va almashtirish</i>	km	tuman	0		
12.2.	<i>qozonxonalarni ta'mirlash, rekonstruksiya va modernizatsiya qilish</i>	ta	tuman	0		
13.	Ko'p kvartirali uylarning ichki issiqlik tizimini tiklash ishlarini tashkil etish	uyalar soni	tuman, mahalla	0		
13.1.	<i>suv inshootlari</i>	ta	tuman	0		
13.2.	<i>suv tarmoqlari</i>	km	tuman	0		
13.3.	<i>suv nasoslari</i>	ta	tuman	0		
14.	Aholi xonadonlarini ichimlik suvi tarmog'iga ulash	xonadon soni	tuman	43	10	10
15.	Markazlashgan ichimlik suv bilan ta'minlanganlik darajasi	foiz	tuman	82,6	82,5	82,5
16.	Aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish, shu jumladan:	ta	tuman	1	0	
16.1.	<i>shaharlar bosh rejalari</i>	ta	tuman	0		
16.2.	<i>shaharchalar bosh rejalari</i>	ta	tuman	0		
16.3.	<i>qishloqlar hududini shaharsozlik jihatdan rivojlantirish sxemalari</i>	ta	tuman	1		
17.	Elektr energetika ob'ektlarini ta'mirlash, shu jumladan:		tuman	0		
17.1.	<i>yuqori kuchlanishli elektr tarmoqlari (220-500 kV)</i>	km	tuman	0		
17.2.	<i>past kuchlanishli elektr tarmoqlari (0,4-110 kV)</i>	km	tuman	127	54	54
17.3.	<i>transformator punktlari</i>	ta	tuman	70	29	29
18.	Iste'molchilarda elektr energiyasi hisoblagichlarini o'rnatish	ta	tuman	816	245	

19.	Ko‘p kvartirali uylar kirish yo‘laklaridagi (qavatlardagi) zinapoya maydonchalarida yoritish chiroqlari uchun harakat datchiklari o‘rnatilishini tashkil qilish	ta	tuman	0		
20.	Avtobus bekatlarini qurish va ta‘mirlash	ta	tuman, mahalla	2	1	
21.	Ko‘prik inshootlarini tiklash	ta	tuman	3		
22.	Avtomobil yo‘llari hamda ko‘chalarda yo‘l belgilari va ko‘rsatkichlarini o‘rnatish	ta	tuman	510	136	136

Xalq deputatlari Farg‘ona tumani
Kengashining
2025-yil 17-dekabrdagi
VII-16-128-11-163-K/25 -son qaroriga
3-ilova

**2025-yilda Farg‘ona tumanida qurilish sohasini rivojlantirishning
MAQSADLI KO‘RSATKICHLAR**

T/r	Indikatorlar nomi	O‘lchov birligi	Qamrov darajasi	Farg‘ona tumani (reja)	III chorak	III chorak
					reja	amalda
1.	Qurilish ishlari hajmi	mlrd. so‘m	tuman	106,8	105,3	117,8
		foiz				
2.	O‘zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkalari va ularda qurilgan ob’ektlarni xatlovdan o‘tkazish	xatlov ob’ekti soni	tuman, mahalla	20	5	19
3.	Jamoatchilik fikri asosida (<i>“ochiq byudjet” doirasida</i>) tadbirlarni moliyalashtirish	mlrd. so‘m	tuman	40,9	16,8	16,9
4.	Xalqaro moliya institutlari ishtirokidagi qishloq infratuzilmasi, o‘rta shaharlar va mahallalarda infratuzilmani yaxshilash loyihalari doirasida amalga oshiriladigan ish hajmi	mln doll.	tuman	0		
5.	Ko‘p kvartirali uy-joylar qurilishini tashkil qilish, shu jumladan:	xonadon soni	tuman	542	238	238
5.1.	<i>“Yangi O‘zbekiston” massivlarida</i>	xonadon soni	tuman	392	162	162
5.2.	<i>boshqa hududlarda</i>	xonadon soni	tuman	150	76	76
6.	Mahallalarning asosiy kirish joylari qiyofasini yaxshilash	ta	tuman, mahalla	2	1	1
7.	Mahallalarda xonadonlar tashqi ko‘rinishini yaxshilash	xonadon soni	tuman, mahalla	195	60	70
8.	Mahallalar ko‘chalarida ishkamlar barpo qilish	xonadon soni	tuman, mahalla	63	10	10
9.	Aholi punktlarida piyodalar va velosiped yo‘laklarini tashkil etish	km	tuman,	1,5	1	1

10.	Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari holatini yaxshilash loyihalarini amalga oshirish	km	tuman	18,6	7,4	7,4
11.	Ko'p kvartirali uylarni ta'mirlash	ta	tuman	4	2	15
12.	Issiqlik ta'minoti tizimini yaxshilash loyihalarini amalga oshirish, shu jumladan:	loyiha soni	tuman	0		
12.1.	<i>tarmoqlarni ta'mirlash va almashtirish</i>	km	tuman	0		
12.2.	<i>qozonxonalarni ta'mirlash, rekonstruksiya va modernizatsiya qilish</i>	ta	tuman	0		
13.	Ko'p kvartirali uylarning ichki issiqlik tizimini tiklash ishlarini tashkil etish	uyalar soni	tuman, mahalla	0		
13.1.	<i>suv inshootlari</i>	ta	tuman	0		
13.2.	<i>suv tarmoqlari</i>	km	tuman	0		
13.3.	<i>suv nasoslari</i>	ta	tuman	0		
14.	Aholi xonadonlarini ichimlik suvi tarmog'iga ulash	xonadon soni	tuman	43	10	10
15.	Markazlashgan ichimlik suv bilan ta'minlanganlik darajasi	foiz	tuman	82,6	82,5	82,5
16.	Aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish, shu jumladan:	ta	tuman	1	0	
16.1.	<i>shaharlar bosh rejalari</i>	ta	tuman	0		
16.2.	<i>shaharchalar bosh rejalari</i>	ta	tuman	0		
16.3.	<i>qishloqlar hududini shaharsozlik jihatdan rivojlantirish sxemalari</i>	ta	tuman	1		
17.	Elektr energetika ob'ektlarini ta'mirlash, shu jumladan:		tuman	0		
17.1.	<i>yuqori kuchlanishli elektr tarmoqlari (220-500 kV)</i>	km	tuman	0		
17.2.	<i>past kuchlanishli elektr tarmoqlari (0,4-110 kV)</i>	km	tuman	127	54	54
17.3.	<i>transformator punktlari</i>	ta	tuman	70	29	29
18.	Iste'molchilarda elektr energiyasi hisoblagichlarini o'rnatish	ta	tuman	816	245	
19.	Ko'p kvartirali uylar kirish yo'laklaridagi (qavatlardagi) zinapoya maydonchalarida yoritish chiroqlari uchun harakat datchiklari o'rnatilishini tashkil qilish	ta	tuman	0		

20.	Avtobus bekatlarini qurish va ta'mirlash	ta	tuman, mahalla	2	1	
21.	Ko'prik inshootlarini tiklash	ta	tuman	3		
22.	Avtomobil yo'llari hamda ko'chalarda yo'l belgilari va ko'rsatkichlarini o'rnatish	ta	tuman	510	136	136

Xalq deputatlari Fargʻona tumani
Kengashining
2025-yil 17-dekabrda
VII-16-128-11-163-K/25 -son qaroriga
4-ilova

**2025-yilda Fargʻona tumanida xizmatlar sohasini rivojlantirishning
MAQSADLI KO'RSATKICHLAR**

T/r	Indikatorlar nomi	O'lchov birligi	Qamrov darajasi	Fargʻona tumani (reja)	III chorak	III chorak
					reja	amalda
1.	Bozor xizmatlar hajmining o'sishi	foiz	tuman	114,6	114,4	113,2
2.	“Drayver” loyihani amalga oshirish (Zarbdor tajribasi)	ta	tuman	3	1	
3.	“Master-reja”si ishlab chiqiladigan hududlar	gektar	tuman	291		
4.	Yangi jamoat transporti marshrutlarini yo'lga qo'yish	ta	tuman	1		
5.	Jamoat transporti parkini yangi avtobus va mikroavtobuslar bilan to'ldirish	ta	tuman	4	2	2
6.	Viloyatdan kesib o'tgan xalqaro toifadagi va respublika darajasidani avtomobil yo'l bo'ylarida xizmat ko'rsatish ob'ektlarini tashkil etish	ta	tuman			
7.	“Bir mahallada yetti dasturchi” loyihasi doirasida yoshlarni xorijiy tillarga va "I-T" ko'nikmalarga o'qitish	nafar	tuman,	500	100	100
8.	“Bir million dasturchi” loyihasi doirasida ta'lim oladigan yoshlar soni	nafar	tuman	500	100	315
9.	"I-T" sohasida faoliyat yuritayotgan kompaniyalar soni (hisobot davri yakuni bo'yicha)	ta	tuman	1	1	1

10.	Aholi punktlarida optik tolali aloqa liniyalarini kengaytirish	km	tuman	150	45	64,2
11.	Yangi tayanch stansiyalarini o'rnatish va mavjudlarini modernizatsiya qilish	ta	tuman	4	1	2
12.	Mahalliy va xorijiy sayyohlarni jalb qilish	ming nafar	tuman	316,50772	117,93	125
12.1.	xorijiy turistlar	ming nafar	tuman	25,49772	10,256	10,68
12.2.	ichki sayyohlar	ming nafar	tuman	291,01	107,67	114,3
13.	Yangi mehmonxona, mehmon uyi va xostellar tashkil etish	o'rinlar soni	tuman	50	30	260
14.	Turizm mahallalari faoliyatini yo'lga qo'yish	ta	tuman			
15.	Turizm xizmatlari eksportini oshirish	mln doll.	tuman	7,22	4,538	4,6
16.	Shahar va tumanlarda aholi gavjum, 24/7 rejimda faoliyat ko'rsatadigan markaziy ko'chalarda savdo va servis ob'ektlarini tashkil etish	km	tuman			
17.	Kanal va ariq bo'ylarini obod qilib, aholi sayr qiladigan maskanlarga aylantirish	km	tuman			
18.	Mahalla servis kompaniyalarini tashkil qilish	ta	tuman, mahalla	4	1	1
19.	Ko'p kvartirali uylarda boshqaruv servis kompaniyalari tuzilishini tashkil qilish	uyalar soni	tuman, mahalla	16	4	4
20.	Ko'p kvartirali uylarda lift uskunalarini yangilash	liftlar soni	tuman			

Xalq deputatlari Farg‘ona tumani
Kengashining
2025-yil 17-dekabrdagi
VII-16-128-11-163-K/25 -son qaroriga
5-ilova

**2025-yilda Farg‘ona tumanida eksport va investitsiyalar hajmini oshirishning
MAQSADLI KO‘RSATKICHLAR**

T/r	Indikatorlar nomi	O‘lchov birligi	Qamrov darajasi	Farg‘ona tumani (reja)	III chorak	III chorak
					reja	amalda
1.	Asosiy kapitalga investitsiyalarni o‘zlashtirish, shu jumladan:	foiz	tuman	109,5	109,0	130,1
1.1.	<i>to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar</i>	<i>mln doll.</i>	<i>tuman</i>	91,4	25,6	41,7
2.	Eksport hajmi, shu jumladan:	mln doll.	tuman	52,2	13,2	7,8
2.1.	<i>sanoat mahsulotlari</i>	<i>mln doll.</i>	<i>tuman</i>	34,4	7,9	1,2
2.2.	<i>meva-sabzavotlar</i>	<i>mln doll.</i>	<i>tuman</i>	17,8	5,3	6,6
3.	Investitsiya loyihalarini ishga tushirish	ta	tuman, mahalla	30	8	9
8.	Sanoat zonalarida ishga tushiriladigan loyihalar	ta	tuman	9	4	3
5.	"I-T" xizmatlari eksporti hajmi	mln doll.	tuman			
6.	Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoati korxonalarida xalqaro standartlarni joriy qilish	korxona soni	tuman	2	1,0	1,0
7.	Turizm xizmatlari eksportini oshirish	mln doll.	tuman	7,2	4,5	4,6

Xalq deputatlari Farg‘ona tumani
Kengashining
